

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**BIOFIZIKA VA BIOINFORMATIKA  
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta'lif sohasi: 510000 – Biologik va turdosh fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 60510100 – Biologiya

<b>Fan/modul kodi</b> <b>BIF15608</b>	<b>O'quv yili</b> <b>2026-2027</b>	<b>Semestr</b> <b>5-6</b>	<b>ECTS - Kreditlar</b> <b>4 - 4</b>					
<b>Fan/modul turi</b> <b>Majburiy</b>	<b>Ta'lim tili</b> <b>O'zbek/rus</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>5-semestr – 4 soat</b> <b>6-semestr – 4 soat</b>					
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>				
	<b>Biofizika va bioinformatika</b>	120	120	240				
<b>I. Fanning mazmuni</b>								
<b>2.</b>	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga biofizikava bioinformatikaning asosiy nazariy tamoyillarini mustaqil chegara fani sifatida va zamonaviy biofizik hamda bioinformatik tadqiqot usullarining arsenalini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish va kompyuter texnologiyalari, bioinformatika usullari va genetik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish ko'nikmalariga ega, shuningdek zamonaviy biomedikal uskunalar uchun yangi bioinformatsion texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – organizmdan kechadigan biofizikaviy jarayonlar hamda uning ahamiyatini tushuntirish haqida hujayra biomolekulalarining kimyoviy tabiatni, funksiyalarini, biomolekulalarni metabolizmdagi o'rmini, hujayrada energiyani hosil bo'lishi hamda sarflanishini, biologik molekulalar miqdorini o'rganishning zamonaiy usullarini haqida bilimlarga ega bo'lish hamda ularning ahamiyatini ochib berish.</p>							
<b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>								
<b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>								
<b>1-mavzu. "Biofizika" faniga muqaddima</b>								
<p>Biofizika fanining maqsad va vazifalari; Fanning ob'ekti va tadqiqot usullari; Biofizikaning asosiy bo'limlari; fanlar bilan bog'liqligi. Biofizika fani yutuqlarini amaliyotda qo'llanilishi. O'zbekistonda biofizika kafedrasining tashkil topishi; Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan biofizik olimlar va ularning ilmiy yo'nalishlari. Biofizika kafedrasining xorijiy oly ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari. O'zbekistonda biofizik tadqiqotlarning rivojlanishi.</p>								
<b>2-mavzu. Biologik jarayonlar termodinamikasi</b>								
<p>Termodinamikaning asosiy tushunchalari. Termodinamikaning birinchi qonuni. Karno sikli. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Termodinamik potensiallar. Biologik ob'ektlarning termodinamik tizim sifatidagi xususiyatlari. Kimyoviy termodinamika asoslari. Chiziqli va nochiziqli jarayonlar termodinamikasi. Chiziqli jarayonlar termodinamikasi. Chiziqli jarayonlar. Onzager koeffitsienti birligi. Ochiq sistemaning entropiyasining Prigojin teoremasi. Chiziqli emas jarayonlar termodinamikasi, muvozanatdan</p>								

uzoqdagi sistemalar statsionar holati. Sinergetika konsepsiysi.

### **3-mavzu. Biologik jarayonlar kinetikasi**

Kimyoviy kernetika asoslari. Fermentativ reaktsiyalarning kinetikasi. Mixaelisa- Menten teglamasi. Reaktsiya tezligiga ta'sir qiluvchi faktorlar. Biologik jarayonlarni matematik modellash. Dinamik tizimlarning differensial tenglamalari. Dinamik tizimlardagi matematik modellarning geometrik echimi – dinamik tizimning fazoviy ko'rinishi. Ferxyulst va Volterra modellari. Biologik trigerlar. Biologiyadagi tebranma jarayonlar. Avtotebranmali jarayonlar.

### **4-mavzu. Molekular biofizika asoslari**

Makromolekulalarning fazoviy strukturasi va struktura shakllanishida ishtirok etuvchi bog'lar va ulardagি ta'sirlanuvchi kuchlar. (Vandervals kuchlar, elektrostatik, hidrofob ta'sirlanish, vodorod bog'lar). Makromolekulalar faoliyati, ligandlar, kooperativlik xossasi va Xill grafigi (mioglobin, gemoglobin misolida). Molekular biofizika usullari: xromatografiya, elektroforez, osmometriya, viskozometriya, doiraviy dixrorizm, rengenostruktur analiz, YaMR, elektronmikroskopiya, fluorimetriya.

### **5-mavzu. Kvant biofizikasi elementlari**

Biopolimerlarning elektron qobig'i, molekular qobig'i, biopolimerlarning elektron xususiyatlari. Yutish va ta'sir spektrlari. Molekulalarning singlet va triplet holatlari. Energiyaning uzatilishi va migratsiyalanish (induktiv rezonans, almashish rezonans, eksiton, tunnel effekti) mexanizmlari. Erkin radikallar, xossalari va jarayonlar.

### **6-mavzu. Biologik membranalarning tuzilishi va funksiyasi**

Hujayra membranasini tuzilishi bo'yicha zamonaviy tushunchalar. Membrana lipidlari va oqsillari. Sun'iy membranalar. Liposomalar. Membranalagi fazaviy o'tishlar. Tabiiy membrananing fizik xossasi – agregat tuzilishi, fazoviy o'tishlar, qavushqoqlik va elektr zaryadi. Model membranalar.

### **7-mavzu. Moddalarning membrana orqali tashilishi**

Moddalarni kimyoviy potentsili. Noelektolit moddalar suvning mebrana orqali tashilishi. Ionlarning passiv transporti. Noelektrolitlar transporti. Oddiy va engillashgan diffuziya. Ionlarning membrana orqali tashilishi. Elektrokimyoviy potensial. Tashuvchilar yordamida moddalarni transporti. Biomembranalarning ionlar uchun o'tkazuvchanligi. Biologik membranalarning selektiv o'tkazuvchanligi. Osmos. Tirik tizimlardagi osmotik jarayonlar. Filtratsiya.

### **8-mavzu. Moddalarning membrana orqali tashilishi. Faol transport**

Moddalarning faol tashilishi. Birlamchi faol transport. Aminokislotalar va qandlar transporti. Moddalar transportining regulyatsiyasi. Aktiv transport mexanizmida tashuvchilarning roli. Faol transport uchun energiya ta'minoti.

### **9-mavzu. Bioelektrogenez**

Model sistemalardagi yuzaga keladigan elektr potensiallar farqi - diffuzion, fazalararo va Donnan potensiallari. Nernst tenglamasi. Membrana (tinchlik) potensiali. Membrana potensialini tasvirlovchi Goldman-Xodjkin tenglamasi. Ion kanallari. Biomembranalardagi ion kanallari va ularning turlari.

Ion kanallarining boshqarilish mexanizmlari, aktivatorlar va ingibitorlar. Ion kanalarining ishlash mexanizmlari. Ionoforlar va kanaloformerlar asosida tasvirlanishi. Ion kanallarini tadqiq etishning zamonaviy usullari. Harakat potensiali va ularning kelib chiqish mexanizmlari. Harakat potensialining uzatilishi. Biopotensialarni qayd etish usullari. «Petch-klemp» usuli.

### **10-mavzu. Sinapslar va sinaptik jarayonlar. Elektro'tkazuvchanlik**

Qo'zg'alishni nerv tolesi bo'ylab uzatilishi. Nerv impulsining mienlinsiz va mienlinli tolalar orqali tashilishi. Sinapslar va sinaptik jarayonlar. Membrana sirt yuzasidagi elektrostatik potensial. Qutblanish hodisasi. Elektro'tkazuvchanlik va uning dispersiyalanishi. Elektro'tkazuvchanlik struktura asoslari. Hujayra va to'qimalar elektro'tkazuvchanligi. Hujayra impedansi.

### **11-mavzu. Harakatning muskulli va muskulsiz shakllari**

Muskul tolasining tuzilishi. Muskul tolasining qisqarish mexanizmi. Muskul qisqarish amplitudasi va tezligi. Kalsiy ionlarining elektromexanik jarayonlarga bog'liqligi.  $Ca^{2+}$  kanallarining hujayra ichidagi strukturasi. Muskul qisqarishida ishtirok etuvchi ionlar, ion kanallari va ularning boshqarilish mexanizmlari.  $Ca^{2+}$ -ATFazaning strukturasi va funksiyasi. Harakatning muskulsiz formalari.

### **12-mavzu. Fotobiologik jarayonlar biofizikasi**

Fotobiologiya jarayonlarini klassifikatsiyasi. Birlamchi foto-fizikaviy va fotokimyoiy reaksiyalar. Fotobiologiya jarayonlar va energiya transformatsiyalanishi mexanizmi. Fotodestruktiv jarayonlar va biologik sistemalarning molekular mexanizmlari.

### **13-mavzu. Bioenergetika asoslari**

Bioenergetika predmeti va vazifalari. Hujayra bioenergetikasining asosiy tushunchalari. Erkin energiyaning tabiiy manbalari. ATF generatori sifatida-mitoxondriyaning tuzilishi va funksiyasi. Energetik bog'lanish konsepsiyalari. Kimyoviy, mexano-kimyoviy, xemiosmotik. Mitchellning xemiosmotik nazariyasi. Hujayra nafas olishining alternativ funksiyalari. Hujayra nafas olish mexanizmlari. Elektron transport zanjiri. Elektron

tashuvchilar. Mitoxondriyalarda energiyaning transformatsiyalanishi. Hujayradagi energiya zahiralari. Hujayraning kislorod iste'moli. Termoregulyatsiya.

#### **14-mavzu. Hujayraga signal transduksiya tizimlari haqida asosiy ma'lumotlar**

Birlamchi va ikkilamchi messenjerlar haqida tushuncha. Retseptorlar, ularning tiplari. G-oqsillar. Fosforillanish - etuk oqsillar faolligi modifikatsiyalanishi sifatida. Proteinkinazalar. Fosfatazalar. Hujayraichi signallashtirishda adenilatsiklaza tizimi. Hujayra ichiga signal uzatilishida fosfatidilinozitid tizimi. Fiziologik jarayonlarni boshqarilishida  $\text{Ca}^{2+}$  ionlarining ishtiroki.

#### **15- mavzu.Radiobiobiologiya**

Ionlantiruvchi nurlarning xarakteristikasi. Ionlantiruvchi nurlarning molekulalarga va tirik to'qima, organizmlarga ta'sir mexanizmlari. Qishloq xo'jalik o'simliklari va hayvonlariga radioaktiv moddalarning ta'siri.Ionlantiruchi radiatsiyaning tabiiy foni.

#### **16-mavzu. Bioinformatika faniga kirish. Predmeti. Asosiy atamalar va tushunchalari**

Bioinformatika faniga kirish. Bioinformatika fanining rivojlanish tarixi va bioinformatika fani istiqbollari. Asosiy atamalar va tushunchalar.

#### **17-mavzu. Bioinformatikaning matematik apparati**

Bioinformatikada sodda statistik modellar. Suriluvchi oyna metodi. Nazariy-informatsion yondashuvning qo'llanilishi. Ketma-ketlikni tekislash algoritmlari. Yashirin modellar bilan ishslashda qo'llaniladigan algoritmlar.

#### **18-mavzu. Zamonaviy bioinformatsion ma'lumotlar bazalari**

“Axborot” va “Bioaxborot” tushunchasi. Axborot nazariyasi. Axborot xususiyatlari. Zamonaviy bioinformatsion ma'lumot bazalari turlari. DNK va RNK nukleotidlar ketma, ketliklari ma'lumot bazalari (GenBank, EMBL, DDBJ). Metabazalar. Genom bazalari. Ochiq ma'lumotlar bazalari kataloglari

#### **19-mavzu. Oqsillar ketma-ketliklari tahliliga mo'ljallangan ma'lumotlar bazalari.**

Oqsil ketma-ketliklari bazalari (PIR, SWISS,PROT, UniProt, TrEMBL). Oqsil strukturalari bazalari. Metabolik yo'llar bazalari. Molekulalarni modellashtirish bo'yicha ma'lumotlar bazalari (MMDB, PDB, NCBI). PSR (Polimeraza zanjir reaksiyasi) bazalari.

#### **20-mavzu Onlayn web-servislar repozitorlari.**

EBI. ExPASy Proteomics Tools. SDSC Biology WorkBench.

### **21-mavzu. Biologik ketma-ketliklarni taqqoslash.**

Biologik ketma-ketliklarni taqqoslash asoslari. Gomologik ketma-ketliklar. Biologik ketma-ketliklarning yakka va ko'plik taqqoslanishi. BLAST algoritmi. BLAST turlari. NCBI da BLAST. Biologik ketma-ketliklarni juft va ko'plik taqqoslashlarni solishtirish. Mark yashirin modellari. Genlarni taqqoslash asosida turlarning filogenetik yaqinligini aniqlash.

### **22-mavzu. Genom tahlili va eukariot organizmlar gen strukturalarini bashorat qilish.**

Genetik axborotning uzatilishi. Genlarning genomdagi lokalizatsiyasi. Pro, va eukariotlarning yaxshi o'r ganilgan genomlari. Bir nukleotidli polimorfizmlar. Genetik xilma-xillik. Genom evolyusiyasi. Gen strukturalarini bashorat qilish metodlari. Gomologik ketma-ketliklar. Ekzon va intronlar. Hisoblashning ochiq ramkasini izlash. ORF Finder dasturi.

### **23-mavzu. Molekulyar filogenetika**

Filogenetikaning asosiy tushunchalari. Filogenetik daraxtlarning tiplari. Zamonaviy bioinformatsion dasturlar (Clustal W2, T, Coffee). Genlarni solishtirish asosida filogenetik yaqinlikni aniqlash. Filogenetik daraxtlar klassifikatsiyasi. Filogenetik bog'lanishlarni aniqlash va filogenetik qarindoshlikni o'rnatish.

### **24-mavzu. Biologik makromolekulalarni vizualizatsiyalashtirishning zamonaviy usullari**

Fazoviy strukturani vizualizatsiyalashning asosiy prinsiplari. RasMol dasturi va unda ishslash tartibi. Biologik makromolekulalarning birlamchi strukturasi asosida ularni vizualizatsiyalashtirish. PyMol va I, TASSER dasturlarida ishslash. Yaratilgan strukturalarni PDB, MMDB ma'lumotlar bazalariga joylashtirish.

### **25-mavzu. Oqsillarning strukturasi va xususiyatlarini *in silico* sharoitida o'r ganish**

Oqsil strukturasini oldindan aytish va o'r ganish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar. Ramachandra xaritalari. Barqarorlik va oqsillar foldingi. Gidrofoblik profilining tahlili. Strukturaviy tekislanishlar. Oqsil strukturalarini modellashtirish va oldindan aytish. Genomlarda oqsil strukturalarini aniqlash. Evolyusiyada oqsil funksiyasining divergensiyasi.

### **26-mavzu. Neyron tarmoqlari**

Neyronlar, signal uzatilishi prinsipi. Sun'iy neyron to'rlari tushunchasi.

Neyron to'rlarining mantig'i. Bir qavatli va ko'p qavatli perseptron. Ko'p qavatli perseptronni o'rgatish. Neyron to'rini tuzish. Neyron to'rlarining qo'llanilishi.

### **27-mavzu. Dori vositalarini ishlab chiqishda bioinformatsion yondashuvlarning qo'llanilishi**

Farmakologik nishonlar. Nishonni aniqlash va tasdiqlash. Struktura – faoliik munosabati. Yangi dori birikmalarining kompyuterli konstruksiyalanishi. Zamonaviy drug-designinstrumentlari va usullari. Dori vositalarining ratsional dizayni va personallashtirilgan tibbiyat. Oqsil, ligand bog'lanishlarining modellashtirilishi. Zamonaviy drug-design ma'lumotlar bazalari va dasturlari. Kompyuterli toksikologiya va immunoinformatika.

### **28-mavzu. Odam Genomi loyihasi (HGP) da Bioinformatikaning o'rni**

Odam nomi loyihasi mohiyati. Bioinformatika rivojining odam nomi o'qilishidagi roli. Odam nomi loyihasidan keyingi istiqbollar. Ahamiyati.

### **29-mavzu. Birikkanlik xaritalari. Xaritalashda foydalaniladigan dasturlari**

Identifikatsiyalash. Molekulyar xaritalash. Mapping toifasidagi dasturlar bilan ishlash.

### **30-mavzu. Populyatsion-genetik tahlil dasturlari**

Inson populyatsiyalarining genetik tarixi, zamonaviy va qadimiy inson populyatsiyalarida sodir bo'ladigan genetik jarayonlarni tahlil qilish. populyatsiyani shakllantirishning asosiy muammosini ishlab chiqish. WinPepi statistik dasturlar to'plami o'rganish dasturlari, genlarni taqqoslash, anotirlash dasturlari. Zamonaviy va qadimiy DNK ni tahlil qilish.

## **III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Laboratoriya tadqiqotlarining umumiyligi qonuniyatlar. Laboratoriya tadqiqotlarida qo'llaniladigan zamonaviy asbob – uskunalaridan foydalanish. Eritmalar tayyorlash.
2. Ochiq sistema barqaror statsionar holatining entropiyasi.
3. Shtraybe usuliga asosan baqa izolirlangan yuragi preparati tayyorlash.
4. Biologik jarayonlar kinetikasiga havo harorati ta'siri. Qurbaqa yuragi misolida harorat koeffitsientini topish.
5. Eritmalar va to'qima suyuqliklarining osmotik bosimlarini aniqlash usul (metod) lari.
6. Bardjer-rast usuli yordamida suyuqliklarning osmotik bosimlarini aniqlash.
7. Biologik suyuqliklarning ayrim fizik xossalari. suvning sirt tarangligi.
8. Sirt aktiv moddalar eritmalarida mitsella paydo bo'lish xodisasi.

9. Qon plazmasining sirt buferlik hususiyatini o'rganish.
10. Mitsella paydo bo'lishining kritik kontseritrattsiyasiini kondyktometrik usul yordamida aniqlash.
11. Xlorid kislota eritmalararo kelib chiqadigan diffuzion potentsiallar farqini o'lehash.
12. Qurbaqa terisidagi potentsiallar farqi.
13. Qurbaqaning o'ldirilgan terisi orqali vujudga keladigan kontsentratsion potentsialning muxit pH darajasiga bog'liq bo'lgan munosabatini o'rganish.
14. Turli xil biologik to'qimalardan mitoxondriyalarni ajratish.
15. Hujayrada yuzaga kelgan erkin radikallar va kislorodning faol shakllarini aniqlash metodlari
16. Zamonaviy bioinformatsion ma'lumotlar bazalari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish.
17. Bibliografik ma'lumotlar bazalari. Matnli ma'lumotlarni olish instrumentlari.
18. BLAST dasturi yordamida nukleotid ketma-ketliklarini solishtirish.
19. BLAST dasturi vositasida aminokislotalar ketma-ketliklarini taqqoslash va translyantlarning olinishi.
20. Hisoblashning ochiq ramkasini izlash. ORF Finder dasturida ishlash.
21. Ko'plik taqqoslanishlar va filogenetik daraxtni yaratish.
22. Clustal W va T-Coffee dasturlari. Ma'lumotlar tahlili.
23. Biologik makromolekulalarni vizualizatsiya qilish dasturlari.
24. Aminokislota ketma-ketligi bo'yicha fazoviy strukturani yaratish.
25. I-TASSER va Modeller dasturlarining ishlash prinsipi.
26. RasMol dasturida oqsil strukturalarining qo'yilishi.
27. Ligand, retseptor ta'sirlashuvlarini oldindan aytish.
28. AutoDock dasturida ishlash.
29. Bioinformatika va "Odam genomi" loyihasi.
30. Populyatsion-genetik tahlil dasturlari.

Fan bo'yicha olib boriladigan laboratoriya mashg'ulotlar ma'ruza mavzulari asosida tuzilgan bo'lib, o'tiladigan fanni har tomonlama o'zlashtirishga yordam beradi. Laboratoriya mashg'ulot darslarida talaba berilgan laboratoriya ishlarni mustaqil metodik ko'rsatmalar asosida bajaradi. Bunda biokimyo va molekulyar biologiya fanining bo'limlari alohida laboratoriya ishlar bilan yoritilgan bo'lib, har bir bo'lim chuqur o'rganib chiqiladi.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan vazifalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga jamoaviy va yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan

holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingen natijalarini tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Shuningdek, talabalarga ma'ruza mashg'ulotlaridan tashqari mavzular beriladi, talablar tomonidan ushbu mavzular mustaqil holda o'zlashtitiladi va belgilangan grafik asosida og'zaki, yozma yoki test shaklida topshiradi.

**Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan mavzular:**

1. Oddiy fermentativ jarayonlar kinetikasi. Mixaelis tenglamasi va uning modifikatsiyalangan shakllari.
2. Harakatchan va qisqaruvchi jarayonlar. Muskul qisqarish apparat oqsillari.
3. Ikki qavatli lipid membranalari. Bir va ikki qavatli sun'iy membranalari.
4. Retsepsiya, retseptor hujayralar, tuzilishi va faoliyatları. Tashqi signallarni sezish organlari retsepsiyasi.
5. "Odam Genomi loyihasi "da Bioinformatika fanining o'rni.
6. Nukleotidli ketma – ketliklar bo'yicha ma'lumotlar bazalari.
7. Filogenetik dendrogrammalarni tuzish algoritmlari.
8. Eukariot organizmlarning gen strukturasini bashorat qilish.
9. Zamonaviy dunyoda bioaxborot xavfsizligi tushunchasi.
10. Dunyo bioinformatsion va bibliografik ma'lumotlar bazasi va kooperatsiyasi.
11. Evolyutsion biologiya, biologik xilma-xillikni baholash.
12. Bioinformatikada qo'llaniladigan asosiy dasturlar.
13. Parsimoniya usulidan foydalanim amalga oshiriladigan filogenetik tahlil dasturi.
14. *MapQTL* dasturiy ta'minoti.
15. Filogenetik tahlil dasturlari.
16. *JoinMap* dasturiy ta'minoti.
17. Java tizimida ishlaydigan, qiyosiy biologiya uchun dasturlar.
18. Miqdoriy belgilar lokuslarini kartalashtirishda foydalanimadigan dasturiy ta'minotlar.
19. *BioEdit* dasturi.
20. Umumi bioinformatika va klinik bioinformatika.
21. Bioinformatikaning qanday bo'limlari.
22. Populyatsion-genetik tahlil dasturlari.
23. Filogenetik shajarani tahrirlashda qo'llaniladigan dasturlar.
24. Bakterial genomlarni umumlashtirishda foydalanimadigan dasturlar.
25. Genetik xilma-xillik populyatsiyalarigi tahlil qilishda qo'llaniladigan dasturlar.
26. DNK ketma-ketligi polimorfizmi tahlili dasturlari.
27. Genomlarni umumlashtirishda foydalanimadigan dasturlar.
28. Molekulyar-evolyutsion, genetik tahlil qilishda foydalanimadigan

	<p>dasturlar.</p> <p>29. Olingan natijalarni umumlashtiruvchi dasturlar.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <p>biologik jarayonlar kinetikasi va termodinamikasi asoslari, biologik jarayonlarni matematik modellashtirish asoslari, kvant biofizikasi elementlari va yorug'lik yutilish qonunlari, fotobiologiya asoslari, biologik membranalarning tuzilishi va funksiyalari, membrana orqali tashish jarayonlari, tinchlik potensiali va harakat potensiali, elektr o'tkazuvchanligi, energiya almashinuvining molekular mexanizmlari, mushak va nomushak harakatchanlik mexanizmlari, hujayra ichidagi signal uzatish tizimlari haqida asosiy ma'lumotlari, informatik - biologik atamalar va ularning ingлизча nomlanishi, axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari, bioinformatika sohasidagi muammolar, eng so'nggi yutuqlar va yangi ishlasmalar, bioinformatika asosi va dasturlashning turli usullari hamda sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan yangi dasturlar haqida <b>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</b>;</p> <p>hujayra va to'qimalarni o'rghanishda asboblardan foydalanish va preparatlar tayyorlash hamda Kelajakdagi kasbiy faoliyatda genetik tajriba olib borish, fenotip, genotip, gomozigota, geterozigota, allel, allel bo'lмаган genlar kabi <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi</b>;</p> <p>potensiometrik usulida ishlay olish; fotokalorimetrlarda ishlay olish; lipidlarning oksidlanish-qaytarilishidan aniqlay olish, bioinformatikaning nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, uning amaliyatda tadbiq etish, tirik hujayrani molekulyar darajada o'rghanish, organizm genomining strukturaviy asoslarini tahlil qilish, umumiyl biologik muammolarni makromolekulalar va hujayra asosida mantiqan yechimini tafakkur qila olish orqali insонning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish <b>malakasiga ega bo'lishi kerak</b>. spektroskopiya usulida mahsulotlar ta'sirini o'rghanish;</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihibar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihibar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida</p>

berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.

6.

### VIII. Asosiy adabiyotlar

1. Косимов М.М. Назарий биофизика асослари. Тошкент, Университет, 2006. -220 б.
2. Muxamedov G.I., Mirxamidova R. va boshq. Ionlashtiruvchi nurlar biologiyasi (Radiobiobiologiya)/Darslik. – Т.: Nodirabegim, 2021. – 270 б.
3. Антонов В.Ф., Черныш А.М., Пасечник В.И., Вознесенский С.А., Козлова Е.К. Биофизика, Владос, 2000. -287 с.
4. Огурцов А.Н. Основы биоинформатики. / Уч.пос. – Харьков НТУ "ХПИ" 2013. – 399 с.
5. Мусаев Ж.А., Бекмухамедов А.А., Мирахмедов М.С., Якубов И.Т., Бобоев С.Ф. Генетика ва геномика асослари/Дарслик. – Т.: "universitet" 2024. -245 б.

### IX. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Самойлов В.О. Медицинская биофизика: учебник для вузов — 3-е изд., испр. и доп. — СПб. : СпецЛит, 2013.— 591 с.
2. Стефанов В.Е., Тулуб А.А., Маэрупуло Г.Р. Биоинформатика. / Учебник. М.- 252 с.
3. Ремизов А.Н. тиббий ва биологик физика/ -Т.: Ибн-сино, 2006. -574 б.
4. Paul G., Teresa K. Bioinformatics and Molecular evolution / Australia. Blackwell publishing -2005. 398 p.
5. Radjabova G.G., Leviskaya Yu.V., Umarova F.T., Komilova N.R. Biofizika fanidan laboratoriyalari mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent.: Universitet., 2016 y., 80 b.
6. Umarova F.T., Radjabova G.G., N.R. Atamuratova, M.M. Kasymov Metodicheskoe ukazanie k laboratornym zanyatiyam po biofizike. Tashkent, Universitet, 2020, 112 s.
7. Косимов М.М. Биофизикадан амалий машгулотлар. Тошкент, Университет, 1992.
8. Radjabova G.G. Biofizika. O'quv uslubiy majmua. Toshkent, Universitet, 2018 y.
9. Ro'ziboev X.S. , Radjabova G.G. , Atamuratova N.R. Bioinformatika fanidan. O'quv uslubiy majmua, 2019 y.
10. Иванов А.С. Биоинформатика: путь от генома к лекарству insilico Вест. РГМУ. 2003. №4.
11. Бауэр Ф.Л., Гооз Г. Информатика. Вводный курс. В 2 ч. М. Мир, 1990. Todaro, Michael P.
12. М. Бородовский, С. Екишева Задачи и решения по анализу биологических последовательностей М.-Ижевск : РХД, 2008.
13. Дромашко С.Е. Очерки биоинформатики. Минск, Беларуская наука, 2009.
14. Handbook of Molecular Microbial Ecology (F.J. de Bruijn, Ed.),

	<p>WileyBlackwell, 2011.</p> <p>15. Metagenomics: Theory, Methods and Applications. (D. Marco, Ed.), Caister Academic Press, 2010.</p> <p>16. Metagenomics Methods and Protocols. (S. Wolfgang, D. Rolf, Eds.), Springer, 2010.</p>
<b>Axborot manbalari</b>	
	<a href="http://www.edu.uz"><u>www.edu.uz</u></a> <a href="http://www.uzedu.uz"><u>www.uzedu.uz</u></a> <a href="http://www.cspu.uz"><u>www.cspu.uz</u></a> <a href="http://www.gov.uz"><u>www.gov.uz</u></a> <a href="http://www.natlib.uz"><u>www.natlib.uz</u></a> <a href="http://www.ziyonet.uz"><u>www.ziyonet.uz</u></a> <a href="http://www.floranimal.ru"><u>www.floranimal.ru</u></a> <a href="http://www.biology.ru"><u>www.biology.ru</u></a> <a href="http://www.cellbio.com"><u>www.cellbio.com</u></a> <a href="http://www.wikipedia.org"><u>www.wikipedia.org</u></a> <a href="http://www.ncbi.gov.org"><u>www.ncbi.gov.org</u></a> <a href="http://www.ornl.gov/hgmis/project/info.html"><u>www.ornl.gov/hgmis/project/info.html</u></a> <a href="http://www.phylogeny.arizona.edu/tree"><u>www.phylogeny.arizona.edu/tree</u></a> <a href="http://www.ebi.ac.uk/biocat/"><u>www.ebi.ac.uk/biocat/</u></a> <a href="http://www.ebi.ac.uk/tools/index.html"><u>www.ebi.ac.uk/tools/index.html</u>,</a>
7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “<u>29</u>” <u>08</u> <u>1</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> <b>Babaxanova D.B.</b> – CHDPU, “Biologiya” kafedrasi katta o'qituvchisi, b.f.f.d.(PhD) <b>M.Abdiqodirov</b> - CHDPU, “Genetika va evolyutsion biologiya” kafedrasi o'qituvchisi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
9.	<b>Taqrizchilar:</b> <b>Raimova G.</b> – O'zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti katta ilmiy xodimi, b.f.f.d. (PhD) <b>X.A.Mo'minov</b> - CHDPU, “Genetika va evolyutsion biologiya” kafedrasi prof.v.b., b.f.d.